



NOTIQLIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA “SURATLARGA ASOSLANGAN MUHOKAMA” METODINING TALABALAR FAOLIYATIGA TA’SIRI

Ismoilov Usmonjon Baxramjon o’g’li

Andijon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Usmonjon9994@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada notiqlik mahoratini rivojlantirishda “Suratlarga asoslangan muhokama” metodining talabalar faoliyatiga ta’siri pedagogik-nazariy va amaliy nuqtayi nazardan yoritiladi. Tadqiqotda metodning kommunikativ va emotsional ta’sirchanligi, nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi o’rni, shuningdek, dars jarayoniga integratsiyalashuvi empirik misollar bilan asoslangan. Kuzatuvlar va tajriba darslari orqali ushbu metod talabalarning og’zaki nutq faoliyatini faollashtirishi, mustaqil fikrlashga undashi, muloqot madaniyatini shakllantirishi, shuningdek, notiqlik komponentlarini — asoslash, dalillash, xulosa chiqarish, auditoriya oldida so’zlash ko’nikmalarini rivojlantirishi aniqlandi. Muallif tomonidan metodning samarali qo’llanilishi bo’yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so’zlar: notiqlik mahorati, suratli muhokama, og’zaki nutq, metod integratsiyasi, pedagogik innovatsiyalar, muloqot madaniyati, faol talaba, didaktik imkoniyatlar

Annotation: This article explores the impact of the “Image-Based Discussion” method on the development of students’ public speaking (rhetorical) skills from both pedagogical-theoretical and practical perspectives. The study reveals the communicative and emotional potential of the method, its role in enhancing speech competencies, and its integration into the classroom. Observations and experimental sessions demonstrate that the method encourages verbal activity, promotes critical thinking, and nurtures communicative culture. The author also



presents practical recommendations for effective implementation of the method in educational contexts.

Key words: public speaking, image-based discussion, verbal skills, pedagogical integration, educational innovation, communicative culture, student engagement, didactic tools

Аннотация: В статье рассматривается влияние метода «Дискуссия на основе изображений» на развитие ораторского мастерства учащихся с теоретико-педагогических и практических позиций. Раскрыты коммуникативные и эмоциональные особенности метода, его роль в формировании речевых компетенций, а также эффективность интеграции в учебный процесс. Результаты наблюдений и экспериментальных занятий показывают, что метод способствует активизации устной речи, формированию самостоятельного мышления и культуры общения. Автором предложены рекомендации по эффективному использованию метода в образовательной практике.

Ключевые слова: ораторское мастерство, дискуссия по изображениям, устная речь, педагогическая интеграция, инновации в образовании, речевая активность, культура общения, дидактические возможности

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonida shaxsning erkin fikrlashini, muloqot madaniyatini va notiqlik mahoratini shakllantirish masalasi pedagogika fanining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Chunki hozirgi globallashuv va axborot portlashi davrida bilimlarni egallashning o'zi yetarli emas, balki ushbu bilimlarni ravon, asosli va ta'sirchan tarzda bayon qila olish ko'nikmasi, ya'ni notiqlik salohiyatiga ega bo'lish zamonaviy shaxs portreti uchun muhim mezonlardan biridir. Afsuski, an'anaviy ta'lim jarayonida talabalarning fikrlash erkinligini qo'llab-quvvatlovchi, ularni og'zaki muloqotda faol ishtirok etishga rag'batlantiruvchi interaktiv metodlardan foydalanish yetarli emas. Bu esa, o'z navbatida, talabalarning nutqiy kompetensiyalarida sustkashlik, muloqotda noaniqlik, fikrini aniq ifodalashda ikkilanish holatlarini yuzaga keltirmoqda.



Mazkur muammolarni bartaraf etishda, ta'lim jarayoniga didaktik va emotsional omillar uyg'unlashgan metodlarni joriy qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xususan, notiqlik mahoratini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion metodlardan biri sifatida "Suratlarga asoslangan muhokama" metodini alohida e'tirof etish lozim. Ushbu metodning asosida vizual materiallar orqali talabani obrazli fikrlashga, asoslashga va mustaqil mulohaza yuritishga undash yotadi. Suratlar inson tafakkurida emotsional chaqnash uyg'otadi, bu esa miyaning til, idrok va emotsiyaga oid zonalarining birgalikdagi faolligini ta'minlaydi. Natijada, talaba faqat ma'lumotni qayta so'zlamaydi, balki uni o'z tajribasi, dunyoqarashi va emotsional holatlari bilan bog'lab ifodalaydi. Bu holat notiqlik mahoratini rivojlantirishda chuqur ta'sir ko'rsatadi. Pedagogik-psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, obrazli idrok qilish orqali o'z fikrini bayon etish qobiliyati yuqori bo'lgan talabalar ijtimoiy muloqotda faolroq bo'ladi, ularning o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi, nutqiy etikaga rioya qilishga moyilligi kuchayadi. Shuningdek, muhokama asosida tashkil etilgan ta'limiy faoliyat talabani nafaqat tinglovchi, balki faol ishtirokchi va tashabbuskor fikr bildiruvchi subyektga aylantiradi. Ayniqsa, "Suratlarga asoslangan muhokama" metodi hayotiylik, dolzarblik va individual yondashuv prinsiplariga asoslangani sababli, talabalar faoliyatida chuqur motivatsiya uyg'otadi. Metodning samaradorligi talabalarning o'z fikrini tuzilmaviy asosda bayon qilishi, mantiqiy dalillar bilan mustahkamlashi, voqelikni turlicha talqin qilishi orqali namoyon bo'ladi.

Asosiy qism. Zamonaviy ta'lim paradigmalarida talaba shaxsini faollashtirish, ularning nutqiy, tafakkuriy va emotsional salohiyatini uyg'otish muhim didaktik vazifalardan biriga aylangan. Bugungi kunda bu maqsadga erishish an'anaviy yondashuvlar doirasidan chiqib, ko'proq vizual, interfaol va konstruktiv yondashuvlarga asoslangan metodlarni qo'llash orqali amalga oshirilmoqda. Shunday metodlardan biri sifatida **"suratlarga asoslangan muhokama"** usuli alohida o'rin tutadi. Ushbu metod orqali talabalar vizual materiallar – suratlar, fotosuratlar, kollajlar, sahna ko'rinishlari orqali muloqotga kirishadilar, voqealarni tahlil qiladilar va o'z pozitsiyalarini erkin ifoda etadilar. Bu metod konstruktivistik



ta'lim nazariyasiga asoslanadi. Konstruktivizmga ko'ra, talaba bilimni o'z faoliyati, tajribasi va tahlil jarayonida "quradi", ya'ni tayyor bilimni egallashdan ko'ra, uni o'z nuqtayi nazaridan anglab yetadi va qayta shakllantiradi. Suratlar bu jarayonda asosiy stimulyator bo'lib xizmat qiladi – ular voqealarni tasavvur qilishga, muhokama qilishga, taxminlar ilgari surishga undaydi. Bu holat o'z-o'zidan og'zaki nutq faolligini, mulohaza yuritish qobiliyatini va notiqlik mahoratini shakllantiradi.

Suratlarga asoslangan muhokama metodi pedagogik psixologiyaning ham muhim tayanchlariga ega. Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi asosida talaba murakkab vazifalarni, ya'ni surat asosida tahlil, sabab-oqibat bog'liqligini tushunish va fikr bildirishni hamkorlikda, o'qituvchi yo'naltiruvchi muvaffaqiyatli bajaradi. Natijada, o'zining mustaqil nutqini shakllantirishga erishadi [1].

Ushbu metodning asosiy didaktik afzalliklaridan biri – uning tasviriy va mazmuniy boyligidir. Suratlar orqali voqelikni, muammoli holatni, ijtimoiy vaziyatni ochib berish, uni tahlil qilish talabalarning analitik tafakkurini, empatiyasini va madaniy ongini rivojlantiradi. Surat asosida berilgan topshiriq talabaning izchil nutq tuzish, fikrni mantiqan asoslash, savolga savol bilan javob qaytarish, dalil keltirish, xulosa chiqarish kabi notiqlik komponentlarini faol shakllantiradi. Bu metodning kommunikativ-didaktik jihatdan qiymati shundaki, u talabani subyekt sifatida muhokama jarayoniga jalb qiladi. U faqat bilim egallovchi emas, balki bilimni muhokama qiluvchi, yangilik kirituvchi va ijtimoiy pozitsiyani bildiruvchi shaxsga aylanadi. Ayniqsa, suratlar hayotiy vaziyatlarga boy, ijtimoiy muammolarni o'zida mujassam etgan hollarda, talabalar real hayotdagi voqealarga munosabat bildiradilar. Bu esa ularning tanqidiy tafakkurini kuchaytiradi.

Metodning amaliy qo'llanilishi ham keng imkoniyatlarga ega. Misol uchun, umumiy pedagogika darslarida "suratdan hikoya tuzish", "qahramon tilidan so'zlash", "voqeani davom ettirish", "tuhmat yoki haqiqat" kabi topshiriqlar yordamida talabalarda muloqot madaniyati, notiqlik va empatiya birgalikda shakllantiriladi. Tarix darslarida esa suratlar orqali tarixiy voqealarga turli burchaklardan yondashuv, savol-javob va munozara orqali tarixiy fikrlash faoliyati



rivojlanadi. Yana bir muhim jihat shundaki, bu metod talabalarni ijtimoiylashuvga, jamoa ichida o'z o'rnini topishga va o'z fikrini madaniyatli tarzda ifoda etishga o'rgatadi. Muhokama davomida navbat kutish, boshqalarning fikrini tinglash, muloyim e'tiroz bildirish, o'z nuqtayi nazarini madaniyatli himoya qilish kabi muloqot etikasi unsurlari tabiiy shakllanadi. Bu esa o'z navbatida talabalarda jamiyatga moslashuvchan, kommunikativ faol shaxs sifatida rivojlanish uchun asos yaratadi. Shu jihatlarni inobatga olgan holda, "suratlarga asoslangan muhokama" metodi nafaqat ta'limiy, balki tarbiyaviy, kommunikativ, madaniy va psixologik jihatdan ham boy vosita ekanini ko'rish mumkin. U har tomonlama integrativ metod bo'lib, talabani bilimli, fikrlay oluvchi, muloqotga kirisha oluvchi, o'z fikrini ochiq bildiruvchi yetuk shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, bu metodni keng joriy etish, ayniqsa, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar, klub faoliyatlari, darsdan keyingi muloqot maydonlarida qo'llash notiqlik mahoratini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka olib keladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida notiqlik mahorati shaxs rivojlanishining muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilmoqda. Notiqlik — bu shunchaki so'zlash qobiliyati emas, balki ijtimoiy muhitda fikrni dalillab, omma oldida erkin va ravon ifoda qilish, muloqotga kirisha olish, dialog yuritish, tinglovchiga ta'sir o'tkazish salohiyatidir. Aynan shu jihatlarni rivojlantirishda "suratlarga asoslangan muhokama" metodining imkoniyatlari juda keng ko'lamni qamrab oladi. Bu metod talabalarning nutqiy faolligini kuchaytirish, fikrni mustaqil shakllantirish, uni mantiqan asoslash, emotsional vositalar bilan boyitish va tinglovchini ishonтира olish kabi fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu metod orqali tashkil etilgan darslarda talaba tasvir asosida birinchi navbatda fikrlashga, keyin esa o'z fikrini bayon qilishga undaladi. Surat bu yerda passiv ko'rgazma emas, balki faollashtiruvchi vositadir — u talabani muhokama jarayoniga jalb etadi, unga savollar tug'diradi, taxminlar paydo qiladi. Aynan shu savollar va ichki fikrlar zanjiri orqali talaba nutqiy harakatga kirishadi, ya'ni notiqlik boshlanadi.

"Suratlarga asoslangan muhokama" jarayonida talaba bir vaqtning o'zida bir necha kognitiv faoliyatlarni bajarayotgan bo'ladi: suratni idrok etish, tahlil qilish,



unga nisbatan hissiy munosabat bildirish, sabab-oqibatni aniqlash, voqeani davom ettirish, shaxsiy pozitsiyani shakllantirish va nihoyat, ularni ogʻzaki ifoda etish. Bu esa notiqlik kompetensiyasining barcha darajalarini — asosiy (fikr aytish), murakkab (dalillash) va yuqori (omma oldida taʼsirli nutq soʻzlash) bosqichlarini bosqichma-bosqich rivojlantiradi [2].

Pedagogik kuzatuvlar va kichik hajmli eksperiment natijalari shuni koʻrsatadiki, bu metod orqali tashkil etilgan darslarda talabalar oddiy voqealarni ham tasvirlab bera olish, fikrini izchil va tushunarli bayon qilish, oʻz nuqtayi nazarini madaniyatli tarzda himoya qilish, eʼtiroz bildirgan auditoriyadoshiga nisbatan tolerantlik bilan munosabat bildirish kabi koʻnikmalarga ega boʻlmoqda. Ayniqsa, surat asosidagi topshiriqlar orqali dars olib borilgan auditoriyalarda talabalarning ogʻzaki nutqida sinonim va antonim soʻzlardan, murakkab gap tuzilmalaridan, tasviriyl vositalardan (metafora, tashbeh, dialogik uslub) foydalanish salohiyatining ortgani kuzatilgan.

Metodning yana bir kuchli tomoni shundaki, u talabalarda psixologik ishonchni shakllantiradi. Odatda, notiqlikda eng katta toʻsiqlardan biri bu — omma oldida xato qilishdan qoʻrqish, fikrini ayta olmaslikdan xavotirlanishdir. Surat asosida fikr bildirish esa talabaga erkinlik beradi. Undan “toʻgʻri yoki notoʻgʻri” javob kutilmaydi. Bu erkinlik esa oʻz-oʻzini ifoda etish istagini, nutqiy faoliyatni kuchaytiradi. Talaba fikr bildiradi, buning uchun tanqid qilinmaydi-aksincha, eʼtibor va ragʻbat oladi. Bu esa ruhiy erkinlik va dadillikni shakllantiradi. Bundan tashqari, metodning emotsional va estetik imkoniyatlari ham beqiyosdir. Talabalar nafaqat aqliy, balki hissiy ongini ham ishga solib nutq quradilar. Suratdagi holatga nisbatan oʻz kechinmalarini izohlash, ularni til orqali ifodalash — bu notiqlikdagi taʼsirchanlik, obrazlilik, intonatsion boylik kabi komponentlarni rivojlantiradi. Intonatsiya, pauza, tana tili, mimika, koʻz aloqasi kabi paralingvistik vositalarning tabiiy shakllanishiga xizmat qiladi.

Metod orqali darslarni tashkil etishda talabalar guruhlar va juftliklarda ishlaganda ular muloqot madaniyatini, muloqotda oʻz oʻrnini topishni, murosaga kelishni, nuqtayi nazarni isbotlashni, muloqot vaqtida eshitish, eʼtibor berish va



muloqot madaniyatiga rioya qilish kabi jihatlarni o'rganadilar. Bu nafaqat notiqlik mahoratini, balki ijtimoiy kompetensiyalarni ham shakllantiradi. Metodning qo'llanilishi cheklanmagan. Uni ona tili, adabiyot, tarix, huquq, chet tili, madaniyat, ma'naviyat fanlarida, hatto tanqidiy fikrlash darslarida ham muvaffaqiyat bilan joriy etish mumkin. Muhimi, surat konteksti talabaga yaqin, hayotiy va mantiqiy bo'lishi lozim. Bu esa talabani ichki faoliyatga, keyinchalik esa tashqi ifodaga — notiqlikka olib keladi.

Notiqlik mahoratini rivojlantirishga qaratilgan har qanday metodning samaradorligi, avvalo, talabalarining nutqiy faolligiga qanday ta'sir qilishi bilan o'lchanadi. "Suratlarga asoslangan muhokama" metodining amaliy qo'llanilishi jarayonida kuzatilgan natijalar ushbu metod talabalarining og'zaki nutq faoliyatini faollashtirishda yuqori samaradorlikka ega ekanini ko'rsatmoqda. Bu bobda ushbu metodni qo'llagan holdagi tajriba darslari, kuzatuvlar, eksperiment sinovlari asosida olingan empirik ma'lumotlar tahlil qilinadi hamda metodning amaliyotga ta'siri yoritiladi. Tajriba darslari davomida kuzatilgan eng muhim o'zgarishlardan biri — bu talabalarining erkin fikr bildirishga bo'lgan tayyorligi va o'z fikrini og'zaki bayon etishdagi dadilligidir. Dastlabki bosqichlarda sinov ishtirokchilarining 40–45 foizi darsda faqat o'qituvchining savollariga qisqacha javob qaytarish bilan cheklangan bo'lsa, uch haftalik "suratlarga asoslangan muhokama" usuli asosidagi mashg'ulotlardan so'ng bu ko'rsatkich 75–80 foizgacha oshdi. Bu shuni anglatadiki, talabalar ko'proq o'z fikrini ifoda etishga, savol berishga, bahsda ishtirok etishga intila boshladi [3].

Kuzatuvlar shuni ham ko'rsatdiki, suratlar asosida muhokama tashkil etilgan darslarda talabalar orasida so'z boyligidan foydalanish darajasi ancha yuqoriladi. Jumladan, tajriba guruhidagi talabalarining nutqida sifatlar, ravishlar, sinonim va antonimlar, emotsional ifoda vositalari son jihatdan ortdi. Talabalar gap tuzishda oddiy subyekt-predikat konstruktsiyalaridan murakkab gaplarga o'ta boshladi. Bu esa nutqning izchilligi, mantiqiyligi, ta'sirchanligi kabi notiqlik mezonlarining rivojlanganidan dalolat beradi. Tajriba davomida talabalarining emotsional faolligi ham sezilarli darajada oshdi. Suratda tasvirlangan holatga nisbatan o'z munosabatini



bildirayotgan talaba nafaqat aqliy, balki ruhiy jihatdan ham faollashdi. Bu holat yuz ifodasi, ovoz tembri, intonatsiya, tana harakati kabi paralingvistik vositalarda yaqqol namoyon bo'ldi. Bu esa notiqlikning faqat og'zaki nutq emas, balki umumiy muloqot kompetensiyasi ekanini yana bir bor isbotladi. Muhokama metodini qo'llash talabalar orasidagi ijtimoiy o'zaro ta'sirni ham mustahkamladi. Talabalar fikr bildirayotganda bir-birining so'zini bo'lmaslik, navbat kutish, e'tiroz bildirgan fikrni madaniyatli qabul qilish kabi muloqot madaniyatiga doir ko'nikmalarni shakllantirdi. Kuzatuvchi o'qituvchilarning fikriga ko'ra, tajriba guruhidagi talabalar orasida psixologik iqlim ham yaxshilangan, ya'ni o'zaro hurmat, faol tinglash, hamkorlik ruhida muloqot qilish ko'nikmalari kuchaygan.

Tajriba natijalariga asoslanib shuni aytish mumkinki, "suratlarga asoslangan muhokama" metodi talabalarning shaxsiy fikrni shakllantirish, omma oldida chiqish qilish, nutqini mantiqiy tarzda tashkil qilish, axloqiy pozitsiyani ifoda etish, bahsli vaziyatlarda o'z fikrini dalillash, muloqotga kirishish, emotsional ifoda vositalaridan foydalanish kabi notiqlik komponentlarini samarali shakllantirdi. Kuzatuvlar asosida aniqlangan yana bir muhim jihat — bu talabalarning metakognitiv salohiyatining rivojlanishidir. Ya'ni talaba muhokama jarayonida nafaqat fikr bildiradi, balki o'z fikrini baholaydi, tuzatadi, tahlil qiladi, uni yaxshilashga harakat qiladi. O'qituvchining yo'naltiruvchi savollaridan keyin talaba: "Men noto'g'ri aytdimmi?", "Yaxshiroq tushuntiraman", "Yana bir misol keltiraman" degan mulohazalarni bildiradi. Bu esa o'z fikrini nazorat qila olish, uni rivojlantirishga intilish sifatida ko'riladi. Shuningdek, metodni qo'llash natijasida talabalarda ijtimoiy hodisalarga nisbatan empatiya, axloqiy baholash, fuqarolik mas'uliyati, shaxsiy qaror qabul qilish kabi hissiy-intellektual jihatlar ham faol shakllana boshladi. Masalan, suratlarda ko'rsatilgan turli voqealar (nizo, murosa, do'stlik, tenglik, yordam, zo'ravonlik, mehr-oqibat) asosida talabalar real hayotdagi ijtimoiy muammolarga munosabat bildirdilar, bu esa ular tafakkurida axloqiy-estetik me'yorlar va hayotiy pozitsiyalarni kuchaytirishga xizmat qildi[4].

Tajriba natijalari metodni qo'llashdan avval va keyingi bosqichda so'zga chiqish chastotasi, nutq davomiyligi, fikr izchilligi, muloqot etikasiga rioya qilish,



auditoriyani jalb etish va ta'sirchanlik darajalari asosida o'Ichandi. Statistik tahlil shuni ko'rsatdiki, metod qo'llanilgan guruhlarda barcha ko'rsatkichlar ijobiy dinamika bilan o'zgargan. Bu esa "suratlarga asoslangan muhokama" metodini notiqlikni rivojlantirishda empirik asoslangan didaktik vosita sifatida baholashga asos beradi.

Zamonaviy ta'lim muhitida har qanday metod yoki texnologiya samarali hisoblanishi uchun u ta'lim jarayoniga integratsiyalasha olishi, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro ta'sirni kuchaytirishi, shuningdek, talabalarning kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, "Suratlarga asoslangan muhokama" metodi o'zining didaktik moslashuvchanligi, mavzular bilan bevosita uyg'unlashuvi va talabalarning nutqiy faolligini oshirishga xizmat qiluvchi funksional xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu metodni dars jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiyalash uchun avvalo darsning maqsadi, mavzusi va talabalarning yosh va psixologik xususiyatlari inobatga olinadi. Muhokama uchun tanlangan suratlar dars mavzusiga mos, emotsional, bahs-munozaraga ochiq bo'lishi kerak. O'qituvchi bu suratlar asosida talabalarning ongida savollar uyg'otadi, taxminlar, assotsiatsiyalar, sabab-oqibat zanjirlari paydo bo'lishiga yo'l ochadi. Masalan, "Odamlar nimaga bir-biriga yordam berishadi?", "Bu suratdagi holatda siz qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?", "Siz bu vaziyatni adolatli deb hisoblaysizmi?" kabi savollar orqali talaba faollikka tortiladi, bu esa nutqiy faollikni tabiaty uyg'otadi [5]. Darsda suratni muhokama qilish individual, juftlik va guruh shaklida tashkil etilishi mumkin. Guruhdagi muhokama talabalarning ijtimoiylashuv darajasini, o'z fikrini murosali bayon qilish malakasini oshiradi. Bu jarayonlarda talaba faqat gapirmaydi — balki tinglaydi, fikr yuritadi, e'tiroz bildiradi, o'z fikrini isbotlaydi. Aynan shular notiqlikning ijtimoiy-madaniy, muloqotga yo'naltirilgan jihatlarini rivojlantiradi.

Muhokama bosqichining natijalari yakuniy tahlil bilan mustahkamlanadi. Har bir guruh o'z fikrini auditoriya oldida taqdim etadi. Bu esa omma oldida gapirish, o'z pozitsiyasini himoya qilish, fikrni strukturaviy ravishda bayon etish, dalillar orqali ishonchli nutq tuzish kabi notiqlik komponentlarini faollashtiradi. O'qituvchi



bu jarayonda yo‘naltiruvchi, kuzatuvchi va tahlilchi sifatida ishtirok etadi, lekin talaba fikrining erkinligiga aralashmaydi. Bu pedagogik yondashuv shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim prinsipini ro‘yobga chiqaradi. Metodning darsga qo‘shilishi o‘z-o‘zidan boshqa ko‘nikmalarni ham shakllantiradi: til boyligi, sintaktik ifoda, bog‘lovchilardan to‘g‘ri foydalanish, ifoda vositalarining stilistik rang-barangligi, emotsional ohanglar va boshqa lingvistik mezonlar. Natijada talaba nafaqat fikr bildiradi, balki uni chiroyli, lo‘nda, ta’sirli va madaniyatli tarzda bayon qilishga harakat qiladi [6]. Muhokama davomida qiziqarli yondashuvlar ham qo‘llanishi mumkin: surat asosida “dialog yaratish”, “hikoya tuzish”, “qaror qabul qilish”, “rollarga bo‘linib bahslashish”, “muammoga ijtimoiy yechim taklif qilish” kabi faoliyatlar darsni jonlantiradi va talabani chuqurroq fikr almashuvga tortadi. Bu esa kreativ fikrlash, emotsional idrok, jamiyatga nisbatan axloqiy pozitsiyani shakllantirishga olib keladi. Shuningdek, ushbu metodni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish ham mumkin. Masalan, dars oldidan CapCut yoki Canva orqali animatsiyalangan suratlar yaratilib, talabalarga namoyish etiladi. Bu vizual-effektli ta’sir orqali talabalarda tasvirni idrok qilish, his qilish va unga javob bildirish ehtiyoji kuchayadi. Talabalar “animatsiyalashgan” suratlar asosida dars davomida nutq tuzishadi, bu esa ayni paytda raqamli savodxonlik va notiqlikni birgalikda rivojlantirish imkonini beradi. Bundan tashqari, metodning samarali qo‘llanilishi o‘qituvchining metodik kompetensiyasi bilan ham bevosita bog‘liq. Suratni qachon ko‘rsatish, qanday savollar bilan muhokama boshlash, talabalar fikrini qanday faollashtirish, muhokamani qanday umumlashtirish — bu savollarning barchasi dars rejasi va metodik mahoratni talab qiladi. Shuning uchun bu metodni qo‘llovchi o‘qituvchilarga metodik qo‘llanmalar, treninglar, monitoring asosida maslahatlar berilishi samaradorlikni oshiradi.

Xulosa: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, “Suratlarga asoslangan muhokama” metodi nafaqat talabalarning notiqlik mahoratini rivojlantirish, balki ularning mustaqil fikrlashi, ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirish, emotsional holatlarini ifodalash va nutqiy madaniyatni yuksaltirishda ham samarali pedagogik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu metodning ustun jihati



shundaki, u talabani sun'iy muhitda emas, balki real kontekstda — hayotiy suratlar, voqealar, vaziyatlar asosida fikr bildirishga undaydi. Natijada, talaba tafakkur qiladi, muammoga yechim topadi, qaror qabul qiladi, o'z nuqtayi nazarini dalillab ifoda etadi va eng muhimi — bu fikrni auditoriya oldida ishonch bilan yetkazishga intiladi. Muhokama jarayonida talabalarning nutqiy kompetensiyalari bilan bir qatorda, ularning kommunikativ, axloqiy-estetik va fuqarolik kompetensiyalari ham shakllanadi. Surat asosida bildirgan har bir fikr, dalil va xulosa talabaning shaxsiy tajribasi, ichki dunyosi, axloqiy me'yorlari va estetik qarashlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularni til orqali ifoda qilish jarayonida shaxsning o'ziga xosligi, dunyoqarashi, axloqiy mezonlari namoyon bo'ladi. Bu esa metodni nafaqat didaktik, balki tarbiyaviy va psixologik jihatdan ham muhim vosita sifatida ko'rsatadi.

Tajriba darslari, kuzatuv va monitoring natijalari shuni tasdiqladiki, ushbu metod qo'llanilgan mashg'ulotlarda talabalar so'z boyligi, nutq tuzilmasining murakkabligi, emotsional ifodaning boyligi, auditoriyani jalb eta olish darajasi, dalil keltirish qobiliyati va muloqot etikasiga rioya qilish bo'yicha sezilarli o'sishga erishgan. Bu holat pedagogika fanining amaliy bo'g'inida metod samaradorligini bevosita tasdiqlaydi. "Suratlarga asoslangan muhokama" metodi o'z mohiyatiga ko'ra shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan, emotsional-axborotli yondashuvlarni o'zida mujassamlashtirgan integrativ metod bo'lib, uni nafaqat darsda, balki auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda, klub faoliyatlarida, bahs-munozara mashg'ulotlarida, hatto ijtimoiy-psixologik treninglarda ham muvaffaqiyat bilan qo'llash mumkin. Shu jihatdan qaralganda, mazkur metodning imkoniyatlari keng, pedagogik samaradorligi esa yuqori darajada baholanadi.

Shunday qilib, mazkur metod talabalarni nutqiy jihatdan faollashtirish, ular orasida muloqot madaniyatini shakllantirish, tanqidiy va tahliliy fikrlashga o'rgatish, ijtimoiy muammolarga munosabat bildira olish qobiliyatini rivojlantirish va eng muhimi — ularni zamonaviy, faol, ma'naviy yetuk, intellektual shaxs sifatida tarbiyalashda o'ziga xos ta'sirchan metodlardan biri ekanini isbotladi. Shu sababdan, ushbu metodni ta'lim jarayoniga tizimli joriy etish, unga oid maxsus metodik



qo'llanmalar yaratish va pedagog kadrlar tayyorlov dasturlariga integratsiyalash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vygotskiy, L. S. Tafakkur va nutq . — Moskva: Pedagogika nashriyoti, 1999. — 249–251-betlar.
2. Xolmuhamedov N.M., Abdullayeva R.S. va boshq. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2022. – B. 83–90.
3. Karimova R., Tojiyev A. Interfaol metodlar va kommunikativ kompetensiya. – Toshkent: Innovatsiya ziyo, 2021. – B. 59–64.
4. Xolmuhamedov N.M., Abdullayeva R.S. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2022. – B. 87–93.
5. Saidahmedov N. Ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2020. – B. 76–84.
6. Abduhalilova Sh.A. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – B. 110–117.
7. A.Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 160 b. – B. 49–50.